

**MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI DARSLARIDA OLIY TA'LIM  
MUASSASALARI TALABALARING FAZOVIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISH  
USULLARI.**

**Radjabov Mansur Rustamovich**

*QarMII dotsenti*

**Boymuratov Farrux Xamzayevich**

*QarMII assistenti*

Yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy–madaniy me'rosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil Respublikamizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Yuqori darajadagi fazoviy tafakkurni rivojlanishi umumta'lism fanlarini va maxsus texnika predmetlarini o'zlashtirishda eng muhim omillardan hisoblanadi. Fazoviy tafakkurning kengligi ko'pgina mutaxassisliklarga amaliy faoliyat uchun tayyorgarlik ko'rishda ham zarurdir.

Ko'pgina tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha, o'quvchi-talabalarda fazoviy tafakkur borasidagi ko'nikmalarning yetishmasligi maktabdan boshlab hattoki oliy o'quv yurtlarini tugatgunga qadar ham davom etar ekan. Bundan tashqari, o'rta va oliy o'quv yurti o'qituvchilarining hamda psixolog, o'qituvchi-tadqiqotchilarining tajribalari shuni ko'rsatadiki, talabalar mantiqiy va fazoviy tafakkurga tayanib yechiladigan masalalarni hal etishni uddalay olmasliklari kuzatiladi.

Bularning barchasi shundan dalolat beradiki, o'rta va oliy o'quv yurtida fazoviy tafakkurning oshirilishiga yetarlicha e'tibor berilmayotgani, ko'proq so'z-mantiqiy fikrlashni kengaytirishga qaratilgan ta'limg-tarbiya ishlari olib borilmoqda. Shubhasiz bu yaxshi, lekin har ikkalasini birga olib borilsa bola intelektini yanada oshishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Hozirgi paytda, aytish mumkinki, fazoviy tafakkurni rivojlantirish jarayonini amalgal oshirish to'liqligicha o'rganilmagan. Maktab yoshidagi bolalarda uni to'laqonli shakllantirish shartlari yetarlicha ma'lum emas. O'quv faoliyatining xarkteridan kelib chiqqan holda fazoviy tafakkurni rivojlantirish darajasini har xil yoshdagি bosqichlarda taqqoslovchi tadqiqotlar hanuzgacha yetarlicha o'tkazilmagan.

Fazoviy tafakkur-aqliy faoliyatning ko'rinishi bo'lib, amaliy va nazariy masalalarni yechishda fazoviy obrazlarni yaratishni hamda ular bilan ishlashni ta'minlovchi omildir. Bu murakkab jarayonda nafaqat mantiqiy (so'z bilan tushuntiriladigan) amaliyotlar balki, keyingi harakatlar tafakkur asosida quriladi, obyektni tanish, uning shaklini o'zgartirish so'z-munozara usulidan farqli o'laroq oson kechadi.

Bu obrazlar sistemasida fikrlashga erishish fazoviy tafakkurning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Fazoviy tafakkurda obrazli tafakkurning asosiy xususiyatlari nomoyon bo'ladi. Xususan, fazoviy obrazlarni yaratishda va ularga tayangan holda, masalalarini (amaliy, kasbiy, grafik) yechish jarayonida fazoviy sanoq sistemasini tanlash ham muhim hisoblanadi.

Fazoviy tafakkur, joyni aniqlash, narsalar va tabiat hodisalariga dunyosiga oid amaliy masalalarini yechishda asosiy tarkibiy qisim bo'lib, obrazli tafakkurga nisbatan oldinroq shakllanadi, deb aytish mumkin.

O'quvchilarda fazoviy tafakkur, fazoviy tasavvurning shakllanishidagi muammolar, yuqorida zikr etilgan jarayonlarning mahsuli bo'lib, fazoviy ko'z oldiga keltirish hisoblanadi, ularsiz esa muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'zlashtirish mumkin emas.

Tasavvurning rivojlanishi-chizmani o'qiy va tuza olish ko'nikmasiga ega bo'lishning muhim shartlaridan biridir. Shuning bilan birga, fanni o'qitish jarayoni tasavvurni rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Bu yerda yetuk mutaxassislarning "Ijodiy fikrni uzatishda chizma eng qulay vositadir" deb aytgan fikrlarini eslash o'rini deb o'ylaymiz.

Uzoq nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida, o'quvchilarda fazoviy tasavvuri, mukammallik, anglab olganliklari, voqelik hamda ilmiylik ko'nikmalari shakllanganligini aniqlashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

1. Mavjud voqelikda obyektlar orasida berilgan obyektni anglamoq.
2. Tasvirlar orasida obyekni anglamoq.
3. Mavjud voqelikda so'z, tasavvur, tasvir va obyekt orasidagi bog'liqlikni o'rnatmoq.
4. Obyektni xayolda tasavvur etish (xotira tasavvuri).
5. Xotirada tasavvur etishni amalga oshirish(so'z orqali, grafik, modellar ko'rinishida).
6. Yangi obyektlarni xayolda yaratish (xayolda tasavvur etish).
7. Xayolda tasavvur etishni amalga oshirish(so'z orqali, grafik, modellar ko'rinishida).

Bu ko'nikmalar asosida o'quvchilardagi fazoviy tasavvurni shakllanganlik darajasini aniqlash mumkin.

I-daraja (Toplash). Fazoviy belgilar va nisbatlarning to'planishi hamda bilib anglab olinishi. O'quvchilar turli tuman fazoviy tasavvurlarni jamlaydilar, turli ko'rinishdagi fazoviy obyektlarning alohida belgi va nisbatlarini anglashni o'rganadilar. Ular obyektga nom bera oladilar, mavjud voqelikdagi predmetlarni rasmdan topa oladilar (1-4 ko'nikmalar).

II-daraja (Esda qolgan narsalarni tasvirlash). Xotirada tasavvur etishni amalga oshirish. O'quvchilarda ularga ma'lum bo'lgan fazoviy belgi va nisbatlarni tasvirlash qobiliyati (tasavvur qilishda, so'z orqali, rasmda, modellar ko'rinishida) o'sadi. Ularda

fazoviy terminlar zahirasi sezilarli darajada kengayadi. So‘z endi signal qiymatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarda muofiqlik tasavvurini chaqiradi (1-5 ko‘nikmalar).

**III-daraja (Konstruktiv).** Fazoviy obrazni mustaqil konstruksiyalash-loyihalash. O‘quvchilar shakllangan fazoviy tasavvurlar asosida, so‘zlar orqali ta’rif berish, sonlar va rasmlardan foydalangan holda yangi tasavvurlar yaratishadi (1-5 ko‘nikmalar, qisman 6,7 ko‘nikmalar).

**IV -daraja (Intellektual).** Fazoviy tasavvurga aqliy yondashuv. O‘quvchilar fazoviy tasavvurning va terminlarning boy zahirasiga ega bo‘ladilar, fazoviy belgilar, nisbatlarni anglashda osongina tabaqlashadilar. Ular bu darajaga yetishganlarida, fazoviy obyektni hayolan harakatlantirish (simmetriya, ko‘chirish, burish) ko‘nikmasiga ega bo‘lib, rasmida ularning harakatdan keyingi holatini aniqlay oladilar(1-7 ko‘nikmalar).

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kursining asosiy maqsadi o‘quvchilarni grafik savodxonlikka o‘rgatishdan iborat. O‘quvchilarining mazkur kursni o‘zlashtirish murakkab bo‘lmagan detallarning kompleks chizmalarini (eskizlarini), yaqqol tasvirlarini bajara olishlari, sodda arxitektura-qurilish chizmalarini, oddiy buyumlarning kinematik va elektr sxemalarini tushinib, o‘qiy olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak.

Kursning muhim vazifalari – o‘quvchining obrazli tafakkurini rivojlantirib, grafik vositalar yordamida amalga oshiriladigan loyihalash jarayonlari bilan ham tanishtirishdan iboratdir.

Oliy ta’lim fani hisoblangan “Muhandislik va kompyuter grafikasi” ijtimoiy jaryonlarga bog‘liq ravishda o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. O‘quvchilarini informatsion va madaniy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda grafik savodxonlikka tayyorlash mukammallashtirilib, yangilanib va qaytadan ko‘rib chiqilmoqda.

Shunday qilib, Muhandislik va kompyuter grafikasini o‘qitishdan maqsad, grafik madaniyatga undashdan iborat bo‘lib qolmoqda:

- grafik tilni o‘rganish - muloqot qilishni, buyumlar haqidagi informatsiyalarni uzatish va saqlashni turli xil metodlar hamda ularni tekislikda tasvirlash usullari yordamida amalga oshiriladi;

- turli xil maqsadlarga mo‘ljallangan chizmalarini bajarish va o‘qish qoidalari hamda usullarini o‘zlashtirish;

- mantiqiy va fazoviy tafakkur, statik, dinamik fazoviy tasavvur rivojlantirish;

- ijodiy tafakkurni va narsalarning shakllarini qayta tuzishning elementar ko‘nikmalarini shakllanishini, ularning fazodagi holati hamda joyini o‘zgartirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Aytib o‘tilgan qarashlar o‘zaro bog‘liq va bir birini taqoza etadigan usullar bo‘lib, talaba o‘quvchilarini grafik savodxonlikka tayyorlashda zamonaviy tasavvurlarni ochib beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. J.Yodgorv, T Sobirov, N. Yodgorov. Geometrik va proyekcion Muhandislik grafikasi fani. O‘quv metodik qo‘llanma -T. “Fan”, 2007.-275 b.
2. С.К. Боголюбов. Инженерная графика. Москва “Машиностроение”, 2000. – 345c
3. 3.Raxmonov I. Chizmalarni chizish va o‘qish. Т. 208 bet “O‘qituvchi”. 1992.- 294 bet.
4. 4.Фролов С.А., Покровская М.В. В поисках начала. Рассказы о начертательной геометрии. – М.: Высшая школа, 1985. – 200 б.
5. 5.www.Ziyonet.uz
6. 6.www.edu.uz